

FUQAROLIK ISHLARI BO‘YICHA SUDLARDA VOYAGA YETMAGANLARNING ISHTIROKI: PROTSESSUAL HUQUQIY MAQOMI

*Fuqarolik ishlari bo‘yicha Izboskan
tumanlararo sudining sudyasi
Gapparova Nazokat Abdukaxarovna*

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarida voyaga etmagan shaxslarning ishtirok etish masalalari, ularning protsessual maqomi va huquqiy kafolatlari chuqur tahlil qilinadi. Voyaga etmaganlarning sud jarayonlarida taraf yoki boshqa protsessual shaxs sifatida qatnashish tartibi O‘zbekiston qonunchiligi normalari hamda olimlarning ilmiy asarlaridagi qarashlar asosida yoritiladi. Xususan, voyaga etmaganlarning protsessual muomala layoqati, ularning huquq va manfaatlarini sudda himoya qilish tartibi, yoshga doir cheklov va imtiyozlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: voyaga etmaganlar, protsessual huquqiy maqom, protsessual huquqiy layoqat, qonuniy vakil, vasiylik va homiylik organi.

O‘zbekiston Respublikasida voyaga etmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Konstitutsiyadan boshlab qator qonun hujjatlarida bolalarning huquqlarini ta‘minlash va ularni kamsitilishdan himoya qilish kafolatlari mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun va “Vasiylik va homiylik organlari to‘g‘risida”gi Qonun voyaga etmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Fuqarolik sud ishlarini yuritish sohasida ham voyaga etmaganlarning ishtirokiga doir qoidalar Fuqarolik protsessual kodeksida va tegishli qonunlarda aks ettirilgan bo‘lib, bular sud jarayonida yoshlar huquqlarini to‘laonli ta‘minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik sudlarida ko‘riladigan ishlar bolalarning manfaatlariga daxldor bo‘lgan ishlar toifasi ko‘plab hisoblanadi, masalan, aliment undirish, ota-onalik huquqidan mahrum etish, farzandlikka olish, vasiylikka oid nizolar va boshqalar. Bunday hollarda voyaga etmagan shaxs bevosita yoki bilvosita sud jarayonining ishtirokchisiga aylanadi. Shuningdek, voyaga etmagan shaxsning o‘zi da‘vogar yoki javobgar sifatida chiqishi mumkin bo‘lgan holatlar ham mavjud (masalan, mehnatga oid nizolar bo‘yicha).

Fuqarolik protsessida taraf sifatida qatnashish faqat muomala layoqatiga ega shaxslarga xosdir. Umumiy qoida bo‘yicha, fuqarolik protsessual muomala layoqati to‘liq hajmda 18 yoshga to‘lgan fuqarolarga tegishli bo‘ladi. Voyaga etmagan fuqarolar esa sudda bevosita mustaqil ishtirok etish uchun to‘liq layoqatli hisoblanmaydi. Ularning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini

sudda odatda ularning qonuniy vakillari – ota-onalari, farzandlikka olgan shaxslari yoki homiylari (vasiylari) himoya qiladi. Shu bilan birga, voyaga etmagan shaxslarning sud protsessida shaxsan qatnashish imkoniyatini ham inkor etmaydi – ya'ni ota-ona yoki vasiy ishtirok etishi voyaga etmagan fuqaroni sudda shaxsan qatnashish huquqidan mahrum qilmaydi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 42-moddasiga ko'ra, o'n to'rt yoshga to'lmagan kichik yoshdagi bolalarning, shuningdek ruhiy holati buzilganligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari – ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki vasiylar himoya qiladi. Masalan, agar nizoli masala bevosita 10 yoshli bolaning mol-mulkiga taalluqli bo'lsa yoki uning manfaatlariga daxldor bo'lsa, sudda da'vo arizasini bolaning o'zi emas, uning ota-onasi yoxud vasiyi beradi. Kichik yoshdagi bolaning sudda ko'rsatma berishi yoki so'roq qilinishi ham alohida tartibga ega. Umuman, 14 yoshgacha bo'lgan shaxs sud jarayonida faqat vakillari orqali qatnashadi, sud esa qaror chiqarganda asosan vasiylik va homiylik organlari hamda ota-onalar taqdim etgan ma'lumotlarga tayanadi.

Shuningdek, 14-18 yoshli voyaga etmaganlarni protsessual muomala layoqati cheklangan subyektlar deb belgilaydi, ya'ni bu yosh toifasidagi fuqarolar ma'lum shartlarga rioya qilgan holda sud jarayonida qatnashishlari mumkin. Umumiy qoida bo'yicha, 14–18 yoshdagi voyaga etmaganlarning huquq va manfaatlarini ham ularning qonuniy vakillari himoya qiladi. Biroq ushbu qoida mazmunan voyaga etmagan shaxsning sudda ishtirokini inkor etish uchun emas, aksincha, uning huquqlarini yanada samarali himoya qilish uchun joriy etilgan norma sifatida qaraladi. Ya'ni ota-ona (yoki boshqa vakil) ishtiroki voyaga etmaganning manfaatlarini ko'zlab protsessual yordam berish maqsadida belgilangan. Fuqarolik protsessual kodeksi 42-moddasida ko'rsatadiki, 14–18 yoshdagi voyaga etmaganlar suddagi ishda shaxsan qatnashishi va o'z nuqtayi nazarini bildirish huquqiga ega – bu huquq ulardan tortib olinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 28-moddasiga muvofiq, 16 yoshga to'lgan ayrim voyaga etmaganlar alohida hollarda sud tartibida to'la muomala layoqatiga ega deb e'lon qilinishi mumkin (emansipatsiya qilinadi). Bu, masalan, voyaga etmagan shaxs mehnat shartnomasi asosida ish yuritayotgan bo'lsa yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, sud orqali uni to'la muomalaga layoqatli deb topish mumkinligini anglatadi. Fuqarolik protsessual kodeksida bunday ishlarni ko'rish tartibi belgilangan bo'lib, sud voyaga etmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi arizani vasiylik va homiylik organi vakili hamda prokuror ishtirokida, voyaga etmagan shaxsning o'zini ham jalb qilgan holda ko'rib chiqadi. Agar sud bunday qaror qabul qilsa, 16 yoshli shaxs sud jarayonlarida endilikda mustaqil ravishda, muomila layoqatli shaxs sifatida protsessual

huquqlarga ega holda qatnasha oladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, 17 yoshga to'lgan voyaga etmagan shaxs nikohdan o'tgan taqdirda ham to'la muomala layoqatiga ega bo'ladi va sud protsessida qatnasha oladi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 42-moddasida ayrim toifadagi ishlar bo'yicha voyaga etmaganlarga nisbatan alohida istisnalar belgilangan. Jumladan, agar ish mehnat huquqiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lsa yoki voyaga etmagan shaxs o'z mehnati evaziga topgan daromadini tasarruf etish bilan bog'liq nizodan kelib chiqqan bo'lsa, bunday holatda voyaga etmagan fuqaro sudda o'z huquq va manfaatlarini shaxsan himoya qilishi mumkinligi tan olingan. Ota-onadan aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ham voyaga etmagan da'vogar sudda bevosita o'z huquqlarini himoya qilish huquqiga ega. Bunday holatlarda sud voyaga etmaganning ota-onasini yoki vasiyini yordam berish uchun jalb qilish masalasini hal qiladi, ya'ni voyaga etmaganning yonida uning vakili bo'lishi mumkin, ammo vakilning ishtiroki majburiy emas. Masalan, 17 yoshli yigit ishlab topgan ish haqini ish beruvchi berishni rad etsa, u mustaqil ravishda sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, ushbu qoidalar voyaga etmagan xodimlarning protsessual huquqlarini cheklashga emas, aksincha ularning sudda o'z manfaatlarini samarali himoya qilishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi normalarni xulosa qilgan holda aytish mumkinki, O'zbekiston fuqarolik protsessual qonunchiligi voyaga etmaganlarning sud jarayonlaridagi ishtirokini ularning yoshiga qarab tartibga soladi. 14 yoshgacha bo'lganlar faqat vakillar orqali qatnashsa, 14–18 yoshdagilar cheklangan hajmda ishtirok eta oladilar (vakillari orqali, ammo o'zlari ham qatnashishi mumkin). Maxsus holatlar (mehnat nizolari, aliment, emansipatsiya)da esa qonun voyaga etmaganga to'la muomalaga layoqatli shaxslar kabi protsessual huquq beradi. Bularning barchasi voyaga etmaganlarning manfaatini himoya qilish va ularga nisbatan adolatli sud jarayonini ta'minlash maqsadlariga qaratilgandir.

Voyaga etmagan shaxslar fuqarolik sud ishlarida turli protsessual maqomlarda ishtirok etishi mumkin: taraf (da'vogar yoki javobgar), uchinchi shaxs, guvoh va qonuniy vakil sifatida.

Voyaga etmagan shaxs o'zi bevosita sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishi yoki unga nisbatan da'vo qo'zg'atilishi hollari kam uchrasa-da, qonun bunday imkoniyatni nazarda tutadi. Yuqorida qayd etilganidek, agar voyaga etmagan shaxs 16–18 yoshda bo'lib, to'la muomilaga layoqatli deb topilgan yoxud mehnat faoliyati orqali kelib chiqqan da'vo bo'lsa, u sudda da'vogar bo'la oladi. Masalan, mehnat da'volarida yoki ota-onasidan aliment undirish da'vosida voyaga etmagan bola da'vogar sifatida ishtirok etishi mumkin. Bunda sud voyaga etmagan tarafning ota-onasini yoki boshqa vakilini jarayonga jalb etishi mumkin, lekin voyaga etmagan fuqaro ham to'g'ridan-to'g'ri bayonot berish, dalillar keltirish, savollar berish kabi huquqlardan foydalanadi.

Sud amaliyotida, odatda, aliment undirish bo'yicha da'volarni voyaga etmagan nomidan uning onasi taqdim etsa-da, qonun bo'yicha 16-17 yoshli farzand ham o'zi da'vogar bo'lib chiqishi mumkin.

Agar voyaga etmagan shaxsga nisbatan da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, sud albatta uning qonuniy vakilini jalb etadi. Voyaga etmagan shaxs sudda javobgar bo'lganda, unga sudda o'zini himoya qilish imkoniyati beriladi, lekin barcha protsessual harakatlar (javob yozish, dalillarni taqdim etish, shikoyat berish va hokazo) uning vakili tomonidan amalga oshiriladi. Bunday ishlarning adolatli ko'rilishi uchun zarur hollarda prokuror ham ishtirok etishi mumkin, chunki voyaga etmaganlarning manfaatini himoya qilish prokuror vakolatiga ham kiradi. Misol tariqasida, agar voyaga etmagan shaxsga meros qolgan uy-joy bo'yicha nizoda katta yoshli qarindoshi unga da'vo qo'zg'atsa, sud ushbu ishda voyaga etmagan tarafning manfaatlarini himoya qilish uchun uning vasiylik organi vakilini va prokurorni jalb etadi, voyaga etmagan nomidan esa ota-onasi yoki vasiyi javob beradi.

Fuqarolik sud ishlarida ba'zan voyaga etmaganlar uchinchi shaxs sifatida qatnashadi. Uchinchi shaxs deganda, ish natijasiga ko'ra, huquq va majburiyatlari belgilanadigan, lekin da'vo talabiga bevosita taraf bo'lmagan shaxs tushuniladi. Masalan, ota-onalar o'rtasidagi nizolarda (ajralish, farzand tarbiyasini belgilash, aliment miqdori kabi ishlar) voyaga etmagan bola bevosita da'vogar yoki javobgar emas, lekin uning manfaatlarini bevosita ko'rilayotgan ish bilan bog'liq. Sud amaliyotida bunday hollarda voyaga etmagan bolani protsessual jihatdan uchinchi shaxs deb hisoblash mumkin. Agar sud qarori voyaga etmaganning huquqiy holatiga ta'sir qilsa, uning manfaatlarini ko'zlab vakil yoki vasiylik va homiylik organi ishda uchinchi shaxs sifatida ishtirok etishi lozim. Misol uchun, ota-onaning ajralish jarayonida sud farzand qaysi ota-ona qaramog'ida qolishi va qaysi biri aliment to'lashi haqida hal qiluv qarori chiqaradi. Ushbu ishda voyaga etmagan bola manfaatdor shaxs sifatida ko'rib, odatda, vasiylik organi vakili uning manfaatini ifoda etadi. Shu tariqa, voyaga etmaganlar bevosita uchinchi shaxs maqomida kam ishtirok etsa-da, ularning manfaatlarini ifodalovchi organ yoki shaxslar jarayonda ishtirok etishi bilan voyaga etmaganlarning huquqlari himoya qilinadi.

Voyaga etmagan shaxslar fuqarolik ishlarida guvoh sifatida so'roq qilinishi ham mumkin. Guvoh – o'zi taraf bo'lmagan ish haqida ma'lumoti bo'lgan shaxs sifatida sudga chaqiriladi. Voyaga etmagan guvohlarni so'roq qilish qonunchilikda maxsus tartibga ega. Fuqarolik protsessual kodeksining 231-moddasida ko'rsatilishicha, 16 yoshga to'lmagan guvoh sudda ko'rsatma berishdan oldin yolg'on ko'rsatma berganlik uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirilmaydi, ya'ni sudya voyaga etmagan guvohga rostini aytish majburiyatini tushuntiradi, lekin unga yolg'on gapirsa javobgarlikka tortilishini aytmaydi, chunki 16 yoshga to'lmagan shaxsning yolg'on guvohlik bergani uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Bu norma voyaga

etmagan guvohga nisbatan mehribonlik tamoyiliga asoslangan bo'lib, ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qilmaslik maqsadini ko'zlaydi.

Voyaga etmagan guvohlarni so'roq qilish jarayonida sud bir qator kafolat choralari qo'llaydi. Jumladan, 14 yoshga to'lmagan guvohni tinglashda sud majlisiga albatta pedagog-mutaxassis va zarur bo'lsa, guvohning ota-onasi yoki vasiylarini chaqiradi. Agar guvoh 14 yoshdan oshgan bo'lsa-yu, hali 16 ga to'lmagan bo'lsa, sudya o'z ixtiyoriga ko'ra pedagog va ota-onalarni jalb etishi mumkin. Pedagog yoki ota-ona voyaga etmagan guvohning ko'rsatmalarini eshitib turadi va raislik qiluvchining ruxsati bilan unga savollar berishi mumkin. Bu tartib voyaga etmagan shaxsni begona muhitda haddan tashqari cho'chib qolmasligini ta'minlash uchun joriy etilgan. Shu bilan birga, sud zarur deb topsa, 16 yoshgacha bo'lgan guvohni so'roq qilayotganda ayrim ishda ishtirok etayotgan shaxslarni vaqtincha sud zalidan chiqarib yuborishi mumkin – masalan, voyaga etmagan guvoh o'z ota-onasiga qarshi ko'rsatma berayotgan bo'lsa yoki boshqa ishtirokchi (aytaylik, javobgar)ning huzurida gapirishga uyalayotgan bo'lsa. Bunday hollarda, sud hal qiluv qarorida bu chorani qo'llaganini asoslab o'tadi, va zalga chiqarib yuborilgan shaxs qaytib kelgach, voyaga etmagan guvohning ko'rsatmalari unga o'qib eshittiriladi, savollar berish imkoniyati ham taqdim etiladi.

Voyaga etmagan guvohlarning sud majlisidagi ishtiroki ham doimiy bo'lishi shart emas: qonun bo'yicha 16 yoshga to'lmagan guvoh so'roq qilingandan so'ng, agar sud muhokamasida qolishi shart deb topilmasa, sud zalidan chiqariladi. Ya'ni kichik yoshdagi bolani butun sud jarayoniga hozir bo'lishi talab etilmaydi – u faqat o'ziga tegishli ma'lumotni bildirib, keyin uyiga qaytishiga ruxsat beriladi. Bundan maqsad voyaga etmaganlarning ruhiyatini ortiqcha zo'riqtirmaslik, noxush tafsilotlarni ular ko'ngliga solmaslikdir. Sud amaliyotida, voyaga etmagan guvohlar odatda oilaviy nizolar (masalan, ajrashish jarayonida bolaning qaysi ota-onada qolishi haqida bola fikrini so'rash) yoki ba'zi bir shaxsiy holatlarni aniqlash uchun chaqiriladi. Bunda sud bolaga tushunarli savollar beradi va mehribonlik muhitida so'roq qilishga harakat qiladi. Lekin sud amaliyotida esa ushbu kafolatlar hamma joyda bir xil ishlamasligi (pedagog chaqirilmassligi, savollar bolaga mos bo'lmasligi, zaldagi bosim muhiti, "ikkinchi marotaba travmatizatsiya" xavfi) bolalar manfaatini bevosita zaiflashtirishi mumkin. Shu sababli, quyidagilarni joriy qilish lozim: voyaga etmagan guvohni so'roq qilish bo'yicha yagona protokol (savol berish uslubi, so'roq davomiyligi, tanaffuslar, pedagog/psixolog roli, yopiq eshituv masalasi) joriy etish;

bolani so'roq qilish uchun sudlarda alohida "child-friendly" xonalarini tashkil etish;

zarur hollarda masofaviy so'roq (videoaloqa) imkoniyatlaridan foydalanish.

Shuningdek, amaldagi fuqarolik protsessual qonunchilikka muvofiq, o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga etmagan shaxslar sud jarayonlarida, odatda, o'z qonuniy

vakillari — ota-onalari, farzandlikka olgan shaxslari yoki vasiylari orqali ishtirok etadilar. Bunday hollarda sud ishni ko‘rib chiqishda, asosan, ota-onalar hamda vasiylik va homiylik organlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar va xulosalarga tayanib hal qiluv qarori chiqaradi. Mazkur yondashuv normativ jihatdan voyaga etmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, sud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, qonuniy vakillik har doim ham bola manfaatlarining real va samarali ta’minlanishini kafolatlamaydi.

Xususan, ota-onalar o‘rtasidagi nizo keskin tus olgan hollarda yoki mol-mulkka oid manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan vaziyatlarda qonuniy vakilning protsessual pozitsiyasi voyaga etmaganning manfaatlarini himoya qilishdan ko‘ra, ko‘proq shaxsiy yoki iqtisodiy manfaatlarini ko‘zlashga yo‘naltirilishi mumkin. Bunday holatlarda vakilning protsessual faolligi bolaga nisbatan “vakolatli himoya” shaklida namoyon bo‘lsa-da, uning mazmunan bola manfaatlariga zid kelishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Natijada, sud tomonidan chiqarilayotgan qaror tashqi tomondan qonuniy ko‘rinsa-da, mazmunan voyaga etmagan shaxsning eng ustuvor manfaatlariga to‘liq mos kelmasligi xavfi yuzaga keladi.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida sud amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi institutsional va protsessual choralarni qo‘llash maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi. Birinchidan, agar sud jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi aniqlansa, sud o‘z tashabbusi bilan voyaga etmagan shaxs uchun mustaqil vakil yoki advokat tayinlash imkoniyatidan faol foydalanishi lozim. Bunday mexanizm bepul yuridik yordam institutlari orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, u bolaning manfaatlarini vakil manfaatlaridan mustaqil va xolis tarzda himoya qilishni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, vasiylik va homiylik organlarining xulosalariga bo‘lgan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Ushbu xulosalar faqat rasmiy-ma’muriy hujjat sifatida emas, balki voyaga etmagan shaxsning real hayotiy sharoitlarini aks ettiruvchi daliliy hujjat sifatida baholanishi kerak. Jumladan, xulosada bolaning yashash sharoiti, tarbiya muhiti, xavfsizlik darajasi, psixologik holati va ijtimoiy moslashuv darajasi kabi omillar batafsil o‘rganilgan va asoslantirilgan bo‘lishi lozim. Faqat shundagina vasiylik organi xulosasi sud uchun ishonchli dalil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Uchinchidan, qonuniy vakil tomonidan amalga oshirilayotgan ayrim protsessual harakatlar voyaga etmagan shaxs manfaatlariga zarar etkazishi ehtimoli mavjud bo‘lgan hollarda, sud tomonidan maxsus cheklov mexanizmlarini qo‘llash amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, sud alohida protsessual ajrim chiqarish orqali vakilning ayrim harakatlarini cheklashi, muayyan dalillarni taqdim etish yoki bitimlar tuzish vakolatini vaqtincha to‘xtatib turishi mumkin. Bunday choralar sudning

faqat nizoni hal qiluvchi emas, balki voyaga etmagan shaxs manfaatlarini faol himoya qiluvchi organ sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Shunday qilib, qonuniy vakillik instituti voyaga etmaganlarning suddagi ishtirokini rasmiy jihatdan ta'minlab bersa-da, uning samaradorligi sudning faol protsessual pozitsiyasi, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini qo'llay olish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir. Mazkur yondashuv voyaga etmaganlarning "eng ustuvor manfaatlar" tamoyilini sud amaliyotida real va mazmunan ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, voyaga etmaganlarning fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ishtiroki o'ziga xos nozik masala bo'lib, bu jarayonda ularning yoshi, psixologik holati va manfaatlar alohida e'tiborga olinishi shart. O'zbekiston qonunchiligida belgilangan protsessual maqom va huquqiy kafolatlar tizimi shu maqsadga qaratilgan bo'lib, uning samarasini oshirish doimiy e'tiborda bo'lishi lozim. Bu borada xalqaro tajriba va standartlar ham milliy qonunchilikka implementatsiya qilinayotgani quvonarlidir. Voyaga etmaganlar ishtirokidagi sud jarayonlari orqali nafaqat yakka bolalarning huquqlari tiklanadi, balki jamiyatda adolat va huquq ustuvorligi tamoyillari mustahkamlanadi. Shunday ekan, sud amaliyotida voyaga etmaganlarning huquq va erkinliklarini to'la ta'minlash, ularni kamsitilmasdan, ruhiyatiga zarar etkazilmasdan odil sudlovga erishish kelgusida ham ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (yangi tahriri, 22.01.2018 y.). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 1998.
3. Mamasidiqov M., Esanova Z., Xabibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016 yil 29 iyuldagi "Sudlar tomonidan voyaga etmaganlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid qonunchilik normalarini qo'llash amaliyoti to'g'risida" 11-son qarori.